



№ 9 (89),  
2020-yil sentabr

# IJODIY PARVOZ

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy, axborot gazetasi*

## 1-sentabr – Mustaqillik kuni



### **“O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTIDA SEN – QUDRAT MANBAYI, SAODAT MASKANI, JONAJON O'ZBEKISTONIM!” SHIORI OSTIDA MUSTAQILLIK DARSLARI O'TKAZILDI**

2020-yil 2-sentabr kuni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida o'qishlar onlayn shaklda mustaqillik darslari O'zbekiston Respublikasi Madhiyasi bilan boshlanadi.

Masofaviy mustaqillik darslari “Sen – qudrat manbayi, saodat maskani, jonajon O'zbekistonim!” shiori ostida o'tkazildi. Mustaqillik darsida institut rektori, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yo'ldoshev, O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzolar mustaqillik darsida o'zlarining samimiy fikr va mulohazalari bilan ishtirok etib, institut talaba-yoshlarini tabriklashdi.

Mustaqillik darsida institut rektori hamda taklif etilgan mehmonlar tomonidan Mustaqilligimiz va yurtimizda erishilayotgan yutuqlar, ularning tarixi, mazmun-mohiyati to'g'risida talaba-yoshlarga keng tushunchalar berildi.

Bundan tashqari, institutning o'quv ishlari, ilmiy ishlari va innovasiyalar bo'yicha prorektorlari, Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i hamda fakultet dekanlari ishtirok etishdi. Ular ham talaba-yoshlar, professor-o'qituvchilarni yangi 2020/2021-o'quv yili bilan tabriklagan va yangi o'quv yili boshlanishi, dars soatlarini tashkil etilishi yuzasidan ma'lumotlar berishdi.

### **MADANIYAT VAZIRI TASHRIF BUYURDI**

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov oliy ta'lif muassasalarida o'tkazilayotgan ijodiy imtihonlar bilan tanishish maqsadida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga tashrif buyurdi. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yo'ldoshev dastlab Madaniyat vaziriga mazkur oliy o'quv yurtiga biriktirilgan O'zbe-

kiston xalq shoiri Muhammad Yusuf hayoti va ijodini o'rganish, uning xotirasini abadiylashtirish borasida olib borilayotgan ishlari bilan tanishtirdi.

Shundan so'ng, Madaniyat vaziri institut rektori hamrohligida ijodiy imtihonlar o'tkazilayotgan jarayonlar bilan tanishdi.

Bu yerda Ozodbek Nazarbekov abiturientlarning aktyorlik san'ati: “Dramatik teatr va kinoaktorligi ta'lif” yo'nalishi bo'yicha ijodiy mahorati, iqtidorlarini



ko'zdan kechirdi. Ijodiy imtihonlarda institut professor-o'qituvchilar bilan birga, “O'zbekistonda xizmat ko'ssatgan madaniyat xodimi”, “O'zbekiston xalq hofizi”, “O'zbekistonda xizmat ko'ssatgan artist” unvoni sohiblaridan iborat tanqli madaniyat, san'at namoyondalarining bevosita ishtirok etayotganiadolat mezonlarini ta'minlashda muhim o'rinn tutadi. Bundan tashqari, shaffoflikni taminlash maqsadida imtihon jarayonlariga jamoatchilik kengashi guruhi a'zolari ham jalb etilgan.

Abituriyentlar va imtihon komissiya-si a'zolari o'rtasida bo'lib o'tayotgan muloqotlar xonalarga o'rnatalgan maxsus kameralar orqali institut hovlisidan tashqariga o'rnatalgan televizorlarga rangli va ovozli tarzda uzatilmogda. Bu esa istagan kishini imtihon jarayonlarini to'g'ridan to'g'ri kuzatib borish imkonini beradi.

**Qutlov!****Qutlov!**

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 29 yilligi munosabati bilan mamalakatimiz taraqqiyoti, yurtimiz rivoji yo'lida o'zlarining mehnati, jonkuyarligi, fidoyiligi bilan boshqalarga o'rnak bo'layotgan bir guruh vatandoshlarimiz Prezidentimiz farmoniga ko'ra, davlatimizning yuksak unvon, mukofotlari bilan taqdirlandilar.

Ular orasida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining vakillari ham borligi barchamizni quvontiradi. O'zlarining sidqidildan qilgan mehnatlari, yurtimiz san'ati, madaniyati, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda alohida sidqidildan mehnat qilayotgan institutimiz vakillarini davlatimizning ushbu unvon, yuksak mukofotlariga sazovor bo'lganligi juda quvonarli voqeа.

Yurtboshimizning ushbu e'tibor va e'tirofi sizlarning bundan keyingi faoliyatingiz, ilmiy izlanishlariningizda yanada kuch-g'ayrat bag'ishlaydi. Jumladan, institutimiz-

ning Ilmiy ishlар va innovatsiyalar bo'yicha prorektori Go'zal Xoliqulova, "Milliy qo'shiqchilik" kafedrasi dotsenti Ahmadjon Dadayev, "Milliy qo'shiqchilik" kafedrasi dotsenti Orol Safarov, "Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati" kafedrasi o'qituvchisi Hamidulla Hasanovlar – "Do'stlik" ordeni bilan, "Cholg'u ijrochiligi" kafedrasi professori vazifasini bajaruvchi Dilmurod Islomov – "Mehnat shuhrati" ordeni bilan taqdirlanishdi.

Fursatdan foydalanib, barcha muhtaram hamkasblarimizni mazkur quvonchli voqeа bilan chin dildan tabriklaymiz. Ularning faoliyatiga, ijodiy ishlарiga muvaffaqiyat tilab qolamiz.


**Egamberdi XO'JAMURODOV,**  
**O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Matbuot xizmati**



**Azimov Usmonkul**  
*(Usmon Azim)*  
*"San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrasi dotsenti, O'zbekiston xalq shoiri, "El-yurt hurmati" ordeni sohibi*



**Islomov Dilmurod Muxutovich**  
*"Cholg'u ijrochiligi" kafedrasi professori vazifasini bajaruvchi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, "Mehnat shuhrati" ordeni sohibi*



**Hasanov Hamidulla**  
*"Ovoz rejissyorligi va operatorlik" kafedrasi katta o'qituvchisi, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, "Do'stlik" ordeni sohibi*



**Dadayev Ahmadjon Shokarimovich**  
*"Milliy qo'shiqchilik" kafedrasi dotsenti, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, "Do'stlik" ordeni sohibi*



**Xoliqulova Go'zal Erkinovna**  
*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Ilmiy ishlар va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, "Do'stlik" ordeni sohibi*



**Safarov Orol Abdumannonovich**  
*"Milliy qo'shiqchilik" kafedrasi dotsenti, O'zbekiston Respublikasi xalq hofizi, "Do'stlik" ordeni sohibi*



**Ahmedov Jahongir Odilxo'jayevich**  
*"Kino, televide niye va radio rejissyorligi" kafedrasi katta o'qituvchisi, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi*

## Kitob haqida

1. Kitoblar shunday qudratli kuch-ki – ular undaydi, majbur qiladi, ishontiradi.
  2. Qarang-ki, bu dunyoning ibtidosi ham so'z (kitob), intihosi ham so'z (kitob).
  3. Kitoblar sizga xohlagan vaqtida va xohlagancha maslahat bera oladi.
  4. Bilaman. O'g'rilik yomon illat. Ammo, ba'zan o'ylab qolaman: kitob o'g'risini kechirish kerakmikan?..
  5. Millatning ertasini kitob do'koniga kirgan bolalarda ko'rish mumkin.
  6. Kitobsiz koshona uydan, kitobli xaroba uy afzal.
  7. Go'dakning birinchi eshitgan qo'shig'i – bu alla. Alla – bu so'z. So'z esa kitoblarda bo'ladi.
- Kishi boqiyga rixlat qilganda ham unga Qur'on tilovat qilinadi. Qur'on ham – kitob.
- Demakki, inson umri kitobdan, kitobgacha ekan, uni chiroyli yozaylik. Toki farzandlarimiz uni o'qishda qiynalishmasin.

## SAHNA NUTQINING ZARGARI

Taniqli olim, san'atshunoslik fanlari nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, "El-yurt hurmati" ordeni nishondori Lola Xo'jayeva o'zbek san'atiga salmoqli hissa qo'shgan, minglab shogirdlar tayyorlab, ularning nimjingga qanotchalariga kuch bag'ishlab, uchirma qilgan ustoz-murabbiy sifatida ko'pechilikning hayotida muhim iz qoldirgan fidoyi ayollardan biri edi. U ayol mohir pedagog, bir qancha mas'uliyatlari lavozimlarda faoliyat olib borgan jonkuyar rahbar sifatida milliy madaniyatimiz va san'atimiz rivojida necha yillar faoliyat olib bordilar.

Lola Xo'jayeva favqulodda fe'lli inson edi. Bu ayloning ko'zlarini moviy-rang edi. Yuzlari oppoq, ovozlari qalin va qat'iyatli. Gavdasini tutib yurishi ham sharqona sal egikroq emas, ovro'-pochasiga tik! Men yozayapmanu, bularni o'qib turgan va Lola opasi yaxshi tanigan odamlarning lablariga mayin tabassum chiqqanini aniq ko'rib turgandekman. Rostdan ham, Lola opa ko'proq farang ayollariga tortib ketardilar.

Men institutga hujjat topshirganimda Lola opasi ko'rmanganman. U kishi yangi kurs olishlariga qaramay, dam olishga ketgan ekanlar. Ularning o'rinaligiga Muhammadjon Ismonov ismli o'qituv-chimiz kursga talaba tanlab, yig'ib turgan ekan. "Drama va kino aktyori" bo'lish uchun hujjat topshirgan kaminani o'sha yili tajriba sifatida tashkil etilgan "Nutq janri aktyori" bo'limiga o'tishga ko'ndira boshlashdi. To hujjat topshirib, abituriyent bo'lib, institutga talaba sifatida qabul qilingunimcha ham, Lola A'zamovnani ko'rganim yo'q. Ammo u kishi haqida ko'p eshitdim. Oddiy oilada, o'zbek mahallada ulg'aygan, menday sodda uchun eshitgan gaplarim anachayin vahimali edi. "...Lola opa qat-tiqqo'l, Lola opa juda talabchan, Lola opa unday, Lola opa bunday..."

Sentabr oyi kelib o'qishlar ham boshlandi. Hali "tarix", hali "xorij teatri" darslari bo'lib turibdi. Ammo Lola opa kiradigan darsdan darak yo'q. Nihoyat, "Mahorat" darsigayam keldik. Bir yoshroq ayol kirib, darsni boshladi. "Shu Lola opami?", deyman. "Yo'g'-ye, bu juda yosh-ku. Keyin qozoq qizi-ku, bu! Lola opasi o'zbek deyishuvdi...", degan bir tizimi yo'q xayol-larga cho'mib turgan paytim birdan auditoriya eshigi ochilib, haqiqiy Lola opa kirib keldi. Uni bizga tanishtirishgani yo'q. Ammo men darhol tanidim. Viqorli, salobatlari, tajriba va umr saboqlarini yelkasiga ortgan ziyoli chehra! Birinchi kirgan ayol o'rnidan sakrab turdi. Bizlar ham o'yoqq turdik. "Bolalar, bular guruhimiz rahbari, to diplom olib, institutni bitiruningizgacha sizlarga kurator bo'ladigan Lola Xo'jayeva bo'ladilar. San'atshunoslik nomzodi, dotsent. Men ularning assistantlari – Xatira Juldi-qorayevaman", – deb Lola opaga o'girildi. Lola opa bizlarga sinchkov nazar bilan qarab chiqdi. Uning uchun tanlangan talabalarga o'zicha baho berdi.

Men tez orada ular bilan ona-boladay bo'lib ketdim. Hatto "lyubimchik" sifatida kichik-kichik sovg'alar ham ola boshladim (kitob, xorijiy ruchka va hokazolar).

O'zi juda ham madaniyatli bo'lgan Lola opa, avvalambor, shogirdlariga madaniyatni o'rgatdi. Kiyim-boshimizni qanday eplashtirishdan tortib, qizlarning soch turmagigacha uning nazaridan qolmasdi. Ko'pchilik ichiga kirganda o'zni tutish, odamlar bilan suhbatlashish vaqtida nimalarga amal qilish kerak, hamma-hammasini o'rgatardilar. Bu aktyorlik mahorati predmetiga to'g'ridan to'g'ri aloqasi bo'lmagan narsalar esa-da, haqiqiy aktyorni shulsiz ham tasavvur etib bo'lmassi-da!

Lola opa mahorat darslarimizga bir gal rassom, keyingi safar pianinochi sozandani taklif etardilar. Ular shunchaki, darsni tomosha qilib o'tirish uchun emas, balki bizlarga suratlarni namoyish etar, ularni tahlil qilib berardi. Pianino ustasi Aziza opa esa, biz – omi, "o'zbilarmon"lar uchun Shopen, Motsart, Betxovenning asarlaridan chalib berardi. Keyin, Lola opa, Aziza opa, Xatira opa uchchovlon musiqaning ijodkor iqtidoriga ta'siri, uning dunyoqarashi va intellektini belgilashda asosiy omil ekanligi haqida kuyib gapirishardi. Lola A'zamovna uyidan plastinkalar ko'tarib kelardi. Allaqaysi xonalardan magnitola topib kelib, plastinkalar eshittirardi. Jorj Bize, Isaak Albenisni men ilgari tanir-midim? Gitara taronasidan zavq olishni xayolimga keltirganmidim? Shopen qayqda-yu, Shopayiz qayqda!... He, ya-shayvergan ekanmizda...

Ko'pincha darslarimiz otashin she'riyat mushoirasi tusini olib ketardi. Lola opa qo'l bilan ishslash texnikasini ham juda yaxshi o'zlashtirgan edilar. She'rlarning mavzuyi, ruhiyati va dramatizmiga qarab turib qo'llarini shunaqa chiroyli harakatlantirildilar... Ayniqsa, ispan she'rlaridan o'qiganlarida. O'sha yillarda Lorka she'riyati "moda" bo'lgan ekan, shekilli. Federikoning she'rlarini ruscha o'qib qolardilar. Keyin bizlarga tushuntirishga kirishib ketardilar. Tabiyiki, Lorkani tushunish uchun insonga ma'lum bir tayyorgarlik zarur bo'ladi. Bizlar ham Lorkani tushunishimiz, uni sevishimiz va, albatta, hissiyotga berilib o'qiy olishimizni istardilar. Shuning uchun ham, Lorka she'rlarining o'zlariga yoqqan uch-to'rttasini bir odamga tarjima qildirib keldilar. Ularni bizlarga bo'lib berdilar. Har kim uni bilganicha o'qir edi.

Lola opa shunchalik taniqli va hurmatli, mashhur muallim edilarki, deyarli hech kim u kishining iltimosini qaytara olmasdi. Bir kuni darsga Botir Zokirovni boshlab keldilar. Hammamiz qotib qoldik. Botir akani tanishtirdilar. Tomog'ini jag' suyaklarigacha berkitib turgan "vodolazka" ko'yak va kostyum kiygan buyuk estrada qo'shiqchisi, Lola opasing bir og'iz erkaklari uchun bir soatdan ko'p vaqtini bizlarga qurban qilib yuborganlar o'shanda. Yana bir safar Turg'un Azizov bilan kirib kelganganlar. Xalq artistlarini yetaklab keladigan bunaqa holatlar juda ko'p bo'lgan va ularning hammasini, tabiiyki, eslay olmayman. Xullas, kurs talabalarining nafaqat aktyorlik mahorati, balki dunyoqarashi, o'ziga bo'lgan ishonchi, atrofni bilishi, odam tanishi, katta san'atdan xabardor bo'lishi ustida ham timay bosh qotirardilar, shuning haraka-

tini qilardilar va bu yo'lda har qanday usuldan foydalanardilar.

Bizga asosan nutq orqali ishlaydigan aktyorlar sifatida qaralgani uchun ham, avval boshda, biz aktyorlar fakulteti tababalariga kiradigan darslardan bebahra edik. Ammo Lola opa dekanat, rektorat, ilmiy kengashlar eshigini buzib, bizlarga ham drama va kino aktyorlariga kiradigan barcha predmetlardan dars soatlari undirib chiqqanlar.

Darslarimiz ko'pincha hikoyachilikka o'xshab ketardi. Ular bir qancha chet ellarga ijodiy safarlarga borib, sahna nutqi mahoratidan voizlik qilganlar. Ustoz qaysi yurtda nima ko'rganlaridan gapirib ketardilar. Tezroq sahnaga chiqib o'zimizni ko'rsatish ishqida yonib yotgan biz shoshqaloq talabalar esa, u payda bu suhbatlar mohiyatini tushunmasdik. Uni tushunish uchun, tushunishga yetib kelish uchun ham ko'p yillar kerak ekanligini, qaydan bilibmiz.

Lola opa o'zlarini bevosita nutqimiz ustida ishlamasdilar. Yuqorida aytganimday, bu bilan shug'ullanadigan bosh-

men esa – o'zbekcha.

Qabristonning ovloqroq chekkasiga ovoz kuchaytirgich moslamalar o'rnatalilgan "PAZIK" avtobusi keltirib qo'yilgan bo'lib, biz o'sha yerdagi mikrofonlar orqali she'r o'qidik. Bu shunchaki mashq edi. Va men bu sinovdan muvaffaqiyatlari o'tdim. Keyin, bayram kuni, uch soat she'rxonlik qildik. Bu mening badiiy so'z sohasidagi ilk professional ishim edi.

Lola opam boshlab borganlaridan keyin olti-yetti yil har bayram kuni she'rxonlikda ishtirot etadigan bo'ldim. Bu voqeal keyingi erishgan muvaffaqiyatlarimning sababchisi bo'ldi, desam, bugun men adashmasam kerak.

Lola A'zamovna juda ham bag'ri keng, optimist ayol edilar. Odamning nimalarga qodir, qo'lida biron-bir karomati bormiyo'qmi, bilmay, sinamay, hatto tanishmay turib ham o'z himoyaligiga olaverardilar. Shu fe'llari tufayli, boshqa kurslarda o'zini namoyon qilolmagan talabalar najot izlab kelishsa, darrov rozi bo'lardilar.



qa domlalarimiz bor edi. Lekin, kezi kelganda o'sha nutq domlalari o'tmagan saboqlar-u pand-nasihatlarni qilib qo'yardilar. Esimda, bir kuni "Muslimjon, shunday qilginki, so'z qidirib, she'r qidirib qolmagin. Aktyor uchun bu juda ham ayanchli hol. Hamma vaqt, har qanday mavzuda she'rlaring, rivoyatlarining, latifa yoki luqmalarining tayyor tursin. Shunda sen o'qlangan miltiqdek shayturasan. Odamlar sendan foydalanishi, sening yordamingga yugurib kelishni ma'qul biladilar", degandilar. "Paxtavonli miltiqlardan esa, maqsad hosil bo'lmaydi".

Men shu gapni mahkam ushlab oldim. Ko'p yillar bu maslahatga amal qildim va ko'p yaxshiliklarga erishdim.

Lola Xo'jayevaning ovozlari yo'g'on, pastki pardalari tabiiy baquvvat edi. Shuning uchun ham rejissyorlar mahzun, bosiq she'rlarni, dramatik va fojiaviy matnlarni o'qishga ularni charqirib ketishardi. Ular meni ham shunday o'qishlarning biriga olib ketdilar. Bu 9-may arafasi bo'lib, bayram kuni tashkilotchilar tomonidan "Qardoshlik qabristoni" ziyyaratiga keluvchilar uchun urush mavzuyidagi she'rlar o'qib turish o'ylangan edi. Shu mavzuda yozdigan shoirlar Shuhurat, Zohidjon Obidov, Erkin Vohidovlarning ash'orlarini og'ir-bosiqlik bilan, ayrılıq, firoq ruhiyatida, chuqur dramatizm bilan "tilovat" qilish kerak. Lola opa – rus tilida,

Opa diplom spektaklimizga ispan dramaturgi Federiko Garsia Lorkanining "Qonli to'y" fojiasini tanladilar. Nega bizga birinchi kursdanoq ispan klassik musiqasini eshittirib kelayotganlari, Lorka she'rlarini dilimizga joylayotganlari birdan ayon bo'lib qoldi. Ular bizni uch yildan beri shu asarga, ispanlar hayotidan hikoya qiluvchi ushbu spektaklga tayyorlab kelayotgan ekanlar... Qoyil!

Lola Xo'jayeva alohida mahorat, yuksak iste'dod sohibasi edi.

U tug'ma murabbiy, fidoyi ustoz edi. Uning ijodiy laboratoriyasidan yetishib chiqqan O'zbekiston xalq artisti Muqaddas Xoliqova, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Bahodir Odilov, "Mehnat shuhrati" ordeni sovrindori Abdurasul Abdullaev, Oybek Veysal o'g'li, Hamid Tosho'latov singari siz tanigan kursdoshlarimning ijodi, san'at yo'lidagi muvaffaqiyatlari esa ustoz mehnatining samarasi bo'la oladi.

*Otamni o'qitgan aziz ustozim,  
Mening bag'ri kengim, o'li ovozim.  
Sening yo'lingdaman,  
a'molim o'sha –  
San'atga baxshida ijodim, sozim.*

**Muslimbek YO'L DOSHEV,  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan  
madaniyat xodimi**

## КАДИМГИ ҲИНД ҲИКМАТЛАРИ

\* \* \*

Саҳармardonда күёш қип-қизил, у шафақда ҳам шундайлигича қолади. Буюк инсонлар омади чопганда ҳам, чопмаганды ҳам ўз қиёфасини ўзгартиримайди.

\* \* \*

Қахру ғазабини сочмоқликдан тийилиш, яхшиликка ҳамиша камарбасталик, жуфти ҳалолидан қоникмок, яқинларига танбех беришдан сакланмок – инсонни безайдиган ноёб сифатлардир.

\* \* \*

Ёмонликдан ўзни тута билиш, дўстона сўз, ҳакгўйлик, софлик, раҳмдиллик, сабр-тоқатлилик – булар ҳамма учун зарур инсоний бурч.

\* \* \*

Ҳар бир амалимиз бизни баҳт сари элтмоғи керак. Шуни унумагилки, адолат йўқ жойда баҳт ҳам йўқ. Адолат доимо шиоринг бўлсин.

\* \* \*

Ўзгалар аёли олдида кўзи кўр, ўзгаларга тегишли бойлик ортидан кувишида оёғинг чўлоқ, гибатлар устида қулоғи кар бўлган қиши улуғ инсон хисобланади.

\* \* \*

Шеърият шарбатидан баҳра олиб роҳатланиш, яхши инсонлар билан ҳамсұхбат бўлиш аччиқ ҳаётнинг тотли меваларидир.

\* \* \*

Миллионлаб китобнинг мазмунмояхияти бир шеърда, тақдирга лойик хизмат – яқинларингга қилинган яхшиликда, гуноҳ эса яқинларингга берган озорингда мужассам.

\* \* \*

Яхшилар ва ёмонлар ўргасидаги фарқ – сигир билан илон ўргасидаги тафовутнинг айнан ўзидир: бири оддий кўкатни сутга, иккинчиси эса оппок тоза сутни заҳарга айлантиради.

\* \* \*

Ҳар бир инсонда қанча фазилат бўлса, унда кусур ҳам шунчадир. Биронта банда йўқки, онадан беайб туғилган, бўлса.

\* \* \*

Факат айбситишга ёки фақат мақтавга муносиб одам йўқ, бўлмайди ҳам.

\* \* \*

Ўзгаларнинг айбини кўриш осон, ўзингники билинмайди. Ўзгалар айбини пуфлаб шиширамиз, ўзимизникини эса, фирибгар ўз кильвирликларини яширгандек яширамиз.

\* \* \*

Фазилат шундайки, у нуқсон қаби кўзга яққол ташланиб турмайди.

\* \* \*

Яхши одатни душманингдан бўлса ҳам ўрган, ёмон одат борасида ҳатто ота-онангта ҳам тақлид қилма.

\* \* \*

Фойдали гапга, уни ҳатто ёш бола айтаётган бўлса ҳам, бепарво бўлма, аҳмоқона гапларга, ҳатто кексалар сўзласалар-да, кулоқ солма.

\* \* \*

Буюк қишилар билан мулокот ҳар қандай инсонга шубҳасиз файз банишлади. Тасаввур қилинг: нилуфар гулининг япроғига тушиб қолган томчи марварид донаси каби товланиб кетади.

\* \* \*

Тоғ тепасига тошни нечоғли маҳақатлар билан олиб чиқамиз, пастга эса, у ҳеч қандай ёрдамсиз думалаб тушиб кетади. Фазилатларимиз бизни ана шундай юксакликка кўтарса, қусурларимиз бир зумда ерпарчин қиласди.

\* \* \*

Калондимоғликни енгган инсон дилкаш, ёқимли бўлиб қолади. Ғазабни енгган қиши хушчақчак одамга айланади. Эҳтиросни енгган инсон ҳузур-ҳаловат топади. Таъмагирликни енгланлар эса саодатга эришадилар.

\* \* \*

Соҳта сўзлагандан сукут сақлаган афзал. Бегона аёлни қаттиқ севиши ўрнига, бор меҳрингни ўз аёлингга бағишила. Ёлғон ила роҳатлангандан кўра, ўлмок раво. Таъмагир бойнинг таоми беминнат камбағалнинг ёвғони аъло.

\* \* \*

Нобакорнинг қалби саодатли дамларда қаттиқ, баҳтсизликда юмшоқ, яхшиларнинг юраги саодатли дамларда юмшоқ, баҳтсизликда қаттиқ бўлади.

\* \* \*

Яхши одамларнинг аввал тафаккури, кейин вужуди қарийди, ярамас кимсаларнинг фақат вужуди қарийди, ўзвуз ниятлари эса, ҳеч қачон ўзгармайди.

\* \* \*

Ёвуз кимсаларга илм – баҳс, пул – кибр-ҳаво, амал – ҳукмдорлик, зўравонлик учун зарур. Яхшиларга эса, аксинча: илм – билимни ошириш, пул – хайр-эҳсон, ҳукмдорлик – яхшиларни химоя қилиш учун зарур.

\* \* \*

Куйидаги уч нарса инсонни жаҳаннамга элтади: шаҳвоний нафс, қаҳр-ғазаб, очқўзлик.

\* \* \*

Маккор сурбетлигини, одатда, кўнгилчан қишиларга нисбатан кўллади, чунки бу тоифа одамлар билан муоммалада жиддий қаршиликка учрамаслигини билади. Агар озгина қаршилиқ, ҳавф пайдо бўлса, унинг безбетлиги бир зумда барҳам топади.

\* \* \*

Ёвуз одам мушукка ўхшайди: ўзига емиш узатаётган кўлни ҳам тимдаб олади.

\* \* \*

Ёмон ҳатти-ҳаракатни кўра-била туриб, унга қарши курашмок учун етарли кучи бўла туриб индамаган қиши, ана шу ярамас одам билан баб-баробар айборд.

\* \* \*

Олти ноинсоғ илгари ўзига кўп нафи теккан инсонларни унугиб юборади: ўкувчи – муаллимини, уйланган ўғил онасини, кўнгли совуган эр хотинини, мақсадига эришган қиши ёрдамчисини, чангалзордан чиқиб олган – йўл кўрсатувчини, бемор – шифокорни...

\* \* \*

Нопок ҳарам ходими, қасамхўр, ёлғончи қаландар ўз гунохини ювиши мумкин, аммо пасткаш одам ҳеч қачон гунохини юволмайди.

\* \* \*

Пасткашнинг фидойилигига ишонма. Муқаддас даргоҳда яшовчилар орасида ҳам ёлғончи роҳиблар йўқ эмас.

\* \* \*

Тарози палласи субутсиз қишига ўхшайди: салга кўтарилиб, салга пастлаб кетади.

\* \* \*

**ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТ САНЬАТ ВА МАДАНИЯТ ИСТИТУТИ**  
**ЭЛЕКТРОН КУТУБХОНАСИДАН**  
**ФОЙДАЛАНИШ ЙЎРИҚНОМАСИ**



- 1. *O'zDSMI Elektron kutubxonasi* каналига [https://t.me/Uz\\_DSMI\\_arm](https://t.me/Uz_DSMI_arm) ҳавола орқали аъзо бўлишингиз мумкин.
- 2. Аъзо бўлиш учун каналга кириб ўнг пастки ОБСУДИТЬ (муҳокама) тугмасини босиб, Elektron kutubxonasi гуруҳига киринг ёки [https://t.me/Uzdsmit\\_elektron\\_kutubxonasi](https://t.me/Uzdsmit_elektron_kutubxonasi) ҳавола орқали уланинг.
- 3. Elektron kutubxonasi гуруҳида сиз ҳафтанинг якшанбадан ташқари ҳар бегим кунлари соат 9<sup>00</sup>дан 17<sup>00</sup> гача китобларга буортма беришингиз ва қабул қилингиз мумкин. Якшанба – дам олиш куни.
- 4. Ўзингиз учун зарур бўлган электрон китобга ёзма буортма бераётганинг гизда матннинг сўнггида ўзингиз ҳақида қисқача маълумотни илова қилишни унутманг.
- 4. Маъмурият билан боғланиш учун @Iroda\_87 га телеграмм орқали уланишингиз ва ўзингизни қизиқтирган саволларга жавоб олишингиз мумкин.
- Масалан:**  
#керак Саид Аҳмад “Уфқ”  
Кино, телевидение ва радио режиссёrlиги йўналиши талабаси Рашидов Сардорбек Таваккалбек ўғли
- 5. Иш вақтидан ташқари пайтда зудлик билан китоб зарур бўлиб қолганда @Iroda\_87 ёки +998 99 306 21 02 маъмурият ракамига мурожаат қилишингиз мумкин.

**Маъмурият**

### Muassis:

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Bosh muharrir:

Azizxo'ja TILLAXO'JAYEV

Tahrir hay'ati:

Go'zal XOLIQULOVA  
Ma'rufjon YULDASHEV  
O'tkur ISLAMOV  
Antonino KOSHELEVA  
Rashid USNATOV  
Jumagul NISHONOVA  
Mas'ul kotib:  
Alimurod TOJIYEV  
Nafisa RAIMQULOVA

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och mavzesi, 127 A uy.

Telefon: (71) 230-28-03. (71) 230-28-13.  
[www.dsmi.uz](http://www.dsmi.uz); [nashriyot@dsmi.uz](mailto:nashriyot@dsmi.uz)

Gazeta har oyning oxirgi haftasida «NISO POLIGRAF» MCHJ bosmaxonasida chop etiladi.  
Manzil: O'rta Chirchiq tumani, Oq ota QFY, "Mash'al" mahallasi, Markaz-1.

Sahifalovchi:  
Shahriyor IBRAGIMOV

Gazeta institutning tahririyat va nashriyot bo'limida tayyorlandi.  
O'chhami – A3, hajmi – 2 bosma taboq.

Nusxasi – 500 dona. Narxi kelishilgan narxda.  
Chop etishga 10.07.2020-yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami bilan 2012-yil 19-dekabrda ro'yhatga olingan.